

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

*Ko'lyozma huquqida  
UDK: 336.55(575.1)*

**YUSUPOV SAIDALI SAIDKARIM O'G'LI**

**IQTISODIYOTNING REAL SEKTORINI RIVOJLANTIRISHDA  
INVESTITSION KREDITLARDAN FOYDALANISH  
SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

**5A230603- Investitsiyalarni boshqarish (tarmoqlar va soxalar bo'yicha)  
mutaxassisligi**

**Magistr  
akademik darajasini olish uchun yozilgan**

**D I S S E R T A T S I Y A**

**Ilmiy rahbar: PhD Axmedov F.X.**


**TOSHKENT – 2019**

Ushbu dissertatsiyada tijorat banklari investitsion kreditlaridan foydalanishning nazariy-huquqiy asoslari o'rganilgan; tijorat banklarining investitsion kreditlardan foydalanishining amaldagi holati tahlil qilingan; tijorat banklarning investitsion kreditlash operatsiyalarini rivojlantirish yo'nalishlari ishlab chiqilgan.

In this dissertation theoretical and legal bases of the investment credits of commercial banks are studied, current state of use of the investment credits of commercial banks are analyzed, the directions of development of investment credit operations of commercial banks are developed.


Magistrlik dissertatsiya ishi "Bank ishi" kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan. 10 - sonli bayonnoma « 27 » may 2019 y.

Ilmiy rahbar: PhD Axmedov F.X

  
imzo

\_\_\_\_\_ sana

Magistr: S.Yusupov

  
imzo

\_\_\_\_\_ sana

**"Himoyaga tavsiya etiladi"**

"Bank ishi" kafedrası mudiri

dots. U.Duskobilov 

"30" may 2019 yil

Himoya 2019 yil "01" "07" soat 14<sup>00</sup> da Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bo'lib o'tadi.

## MUNDARIJA

|                                                                                                                                  |           |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------|
| <b>KIRISH .....</b>                                                                                                              | <b>3</b>  |
| <b>I BOB. TIJORAT BANKLARI INVESTITSION KREDITLARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI.....</b>                          | <b>7</b>  |
| 1.1. Investitsion kreditlashning iqtisodiy mohiyati va bu boradagi nazariy yondashuvlar.....                                     | 7         |
| 1.2. Tijorat banklari investitsion kreditlashining tashkiliy asoslari .....                                                      | 15        |
| 1.3. Banklarning investitsion kreditlardan foydalanishining huquqiy asoslari ...                                                 | 22        |
| 1-bob bo'yicha xulosa.....                                                                                                       | 29        |
| <b>II BOB. TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION KREDITLARDAN FOYDALANISHINING AMALDAGI HOLATI.....</b>                              | <b>30</b> |
| 2.1. Banklarning investitsion kreditlarni diversifikatsiyalash amaliyoti tahlili...                                              | 30        |
| 2.2. Tijorat banklarining investitsion resurslarini iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirishga yo'naltirish amaliyoti ..... | 37        |
| 2.3. "Ipak Yo'li" ATIBning investitsion kreditlash faoliyati tahlili .....                                                       | 46        |
| 2-bob bo'yicha xulosa.....                                                                                                       | 51        |
| <b>III BOB. O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION KREDITLASH OPERATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI .....</b>      | <b>53</b> |
| 3.1. Tijorat banklari investitsion resurslarini boshqarish borasidagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari .....   | 53        |
| 3.2. Tijorat banklarining iqtisodiyot tarmoqlariga investitsion resurslarni jalb etishni takomillashtirish istiqbollari .....    | 61        |
| 3-bob bo'yicha xulosa.....                                                                                                       | 72        |
| <b>XULOSA VA TAKLIFLAR.....</b>                                                                                                  | <b>74</b> |
| <b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI .....</b>                                                                                  | <b>78</b> |

## KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Bugungi kunda O'zbekistonda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish jarayoni tijorat banklarining barqaror faoliyat yurituvchi tizimini yaratishni ko'zda tutadi. Ma'lumki, bozor munosabatlari beqaror, tez o'zgarib turuvchi munosabatlardir. Bunday sharoitda banklar o'z mijozlari, raqobatchilari tomonidan bo'ladigan xarakatlar va qonun hujjatlari o'zgarishi bilan bog'liq turli xil natijalar va ularning bank faoliyatiga ta'sirini inobatga olib borishlari lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek "Biz iqtisodiyotimizga sarmoya kiritishga intiladigan investorlar uchun hududlar va tarmoqlar bo'yicha investitsiya loyihalarini puxta shakllantira olsak, bu masalada ijobiy natijaga erishish mumkin. Bu borada erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarida biznes sub'ektlarini joylashtirish, ularga imtiyoz va preferentsiyalar berishni tashkiliy va huquqiy jihatdan tartibga solish lozim"<sup>1</sup>. Mazkur vazifalarning samarali bajarilishi, mamlakatimizda erkin iqtisodiy zonalar faoliyatining yanada rivojlanishiga va istiqbolda milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida «faoliyat ko'rsatayotgan erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalarini samaradorligini oshirish, yangilarini tashkil etish»<sup>2</sup> muhim yo'nalishlardan biri sifatida belgilab berildi.

Bunda, tijorat banklarining kapitallashuv darajasini yanada oshirish, ushbu sohaga xususiy kapitalni jalb etish, depozit bazasini kengaytirish, iqtisodiyotga yo'naltirilayotgan kreditlar hajmini oshirish va banklarning investitsiya jarayonlaridagi ishtirokini yanada kengaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga kreditlar ajratish mexanizmini yanada soddalashtirish va ularga ajratiladigan kreditlar hajmini oshirish, avvalambor, investitsiya maqsadlariga, boshlang'ich sarmoyani shakllantirishga, ishlab chiqarishni

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. Xalq so'zi. 2018 yil 28 dekabr.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni. PF-4947-son, 2017 yil 7 fevral. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017 y., 6-son, 70-modda.